



**CHET EL VA SOBIQ ITTIFOQ PSIXOLOGLARI  
TADQIQOTLARIDA SHAXS INTELEKTUAL-AQLIY  
RIVOJLANISHINING O'RGANILISHI**

<sup>1</sup>Iskandarov J.

UrDU dosent,

<sup>2</sup>Allomova Sh.

Magistr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7578756>

**ARTICLE INFO**

Received: 17<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> January 2023

Online: 28<sup>th</sup> January 2023

**KEY WORDS**

Shaxs, ma`naviyat, irodaviy  
sifat, tafakkur, intellekt,  
qobiliyat.

**ABSTRACT**

*Mazkur maqolada chet el va sobiq ittifoq psixologlari tadqiqotlarida shaxs intellektual-aqliy rivojlanishini masalalari keng tahlil qilingan.*

Ma`naviy- ma`rifiy va mafkuraviy targ`ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma`naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yonalishi bo`lgani , mafkuraviy tahdid va axboriy xurujlar ko`payib borayotgani , odamlar ongi va qalbini egallash yo`lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barhca jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida , ayniqsa, o`quvchilar orasida ma`naviy-ma`rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish eng muhim vaizfa hisoblanadi.

Zero, ma`naviy-ma`rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishi sifatida belgilangani bejiz emas. Har qanday ishning ijtimoiy taraqqiyotning me`mori ham , bunyodkori ham bosh harakatlantiruvchi ham inson.Uning aql zakovati va samarador mehnatisiz hech nima yaratilmaydi, vujudga kelmaydi. Respublikamizda o`tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar taqdiri, pirovard natijada ma`naviy -ma`rifiy ishlarni qay darajada yuksak saviyada tashkil qila bilish muhim hayotiy muammodir. Chunki ma`naviy-ma`rifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqli fazilatlarni o`zida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, yetuk malakali , yuksak aql va zakovat va istiqbol dunyoqarashiga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyatini tezlashtira oladi.O`zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o`rin egallashini ta`minlay oladi.

G.Kettell shaxsning asosiy omillari orasida kuchni va ojjizlikni ko`rsatadi, «oliy men» - inson irodasining bo`shligini, o`zining harakatlari turg'unmasligini, printsipsizlikni ko`rsatadi. O`z-o`zidan irodaviy sifatlar ma`naviyatda ko`proq ko`rinadi. U shaxs tarkibi bo`lib yo`nalganlik sifatlariga bog`liq ravishda ko`rinadi va shuning uchun yaxlit ma`naviyatda o`rganilishi kerak.

Angliyalik psixolog Vebb 1915 yildayoq irodaviy omilni, Bert 1939 yilda bolalarni o`rganishda u «umumiy emotsionallik» deb atagan omilni ajratib ko`rsatdi .



L.Teyler o'zining «Individual farqlar psixologiyasi» monografiyasida shuni ko'rsatadiki, «sifat» atamasi «shaxsning mezoniy jihatini» bildiradigan «o'lchash» atamasiga o'z o'rnini beradi.

«SHaxsga kirish» monografiyasining muallifi Don Bayri yozadiki, «shaxs tuzilishi shaxslarning tashkiliy o'zaro ta'sirini statistik tasavvur sifatida tushunilishi mumkin». Bu davrlar «fundamental davrlar», «funktsional birliklar», «o'lchamlar» omillari sifatida belgilanadi. AQSHning barcha psixologlari shaxsni matematik fetishizm jihatidan qarashmaydi.

Ma'naviyat va intellekt o'rtasidagi munosabatlarning murakkab muammosi qadim davrlardan beri donishmandlarning diqqat-e'tiborini tortib kelgan. Sokratning intellektual axloqiga asosan muloyim odamlar odamni muloyim qiladi. Aristotel barcha muloyim, ko'ngilchan odamlarni 2 ta guruhga ajratdi: etik va dianoetik, bular axloq va aql odamlari.

AQSHda J.Gilford uchta o'lcham ko'rsatilgan «inson intellektining murakkab tuzilishi nazariy modeli»ni taklif qildi. Birinchi o'lcham – operatsiyalar, unga baho, tafakkur, xotira va tanish kiradi. Ikkinchi o'lcham intellekt mahsuli: birliklar, sinflar, munosabat, tizimlar, aytishlar kiradi. Uchinchi o'lcham intellektual faoliyat mazmuni: figurali, simvolik, semantik va bixevioristik. Bu model ishonchli ilmiy qiziqishni vujudga keltiradi, chunki intellekt har tomonlama qarab chiqiladi. Intellektda operatsiyalar, mahsulotlar va mazkur farqlanishi to'la qonuniydir.

E.Torndaykning fikricha, umumiy intellekt mavjudligiga shubha bor bo'lib, unga alohida funktsiyalar va ko'rinish xosdir. Buni o'rganish uchun bir nechta faktlar guruhini keltirish mumkin.

Intellektning tabiati va psixologik mohiyati haqidagi masala bo'yicha har xil fikrlar mavjud. Umumiy intellektni qarab chiqqan Spirmen asosiy omil sifatida munosabatni tushunishni hisoblaydi. V.SHternning fikricha, aqliy qobiliyatlik bu «yangi talablarga nisbatan o'zining tafakkurini ongli boshqaradigan individuumning umumiy qobiliyatidir; bu yangi masalalarga va hayot sharoitlariga psixik moslashishning umumiy qobiliyatidir». E.Torndayk hisoblaydiki, intellekt bu ko'plab funktsiyalarning birlashishidir.

Klapared Spirmen, V.SHtern va E.Torndayk nuqtai nazarlarini birlashtiradi va aqliy iqtidorlikni boshqaruvchi va yangi muammolarni yechishga qobiliyat sifatida integralga ajratadi.

Falsafiy adabiyotlarda ham intellekt va irodaning nisbiy ahamiyati haqidagi muammo ustida mushohadalar yuritilgan. Irodani tasdiqlovchi volyuntaristlar bilan intellektualistlar o'rtasida qiziqarli bahslar olib borilgan. Dekart, Spinoza. Leybnits kabi donishmandlar intellektualist nuqtai nazariga ega edilar, SHopengauer, Gartmanlar esa volyuntaristik qarashlarga egadirlar. Ilmiy psixologiyada ham ularning fikrini qo'llab-quvvatlovchilar ko'rinadi. Meyman o'zining «Intelligentlik va iroda» kitobida biroz empirik materialga ega bo'lib, intellektualistik, keyinchalik esa metafizik xulosaga keldi.

XVI-XVII asrlardagi moralist-ma'naviyatologlardan Laroshfuko «aristokratik» aqlning har tomonini ko'rib, insonni bajaradigan ishlarining asosiy harakatlantiruvchisi yurakdadir deb, aql esa faqat tobelik holatini egallaydi, xolos.

Frantsuz faylasufi Labryuyer aql va yurak o'rtasidagi munosabatni tushuntirishga intilib, aql ishlashi uchun emotsiya va iroda ham kerakligini aytib o'tadi.



L. Labryuyer ham aql va yurak yoki aql va iroda o'rtasidagi antagonizm haqida gapirib, aqlning ruhiy ekanligini ko'rsatib berishgan. Ijtimoiy-tarixiy davrlarda mualliflar tomonidan aql, hissiyot va iroda kuchlari birlashishiga qarshi fikrlar ta'kidlab o'tilgan.

Keyingi davrlarda intellekt va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarni tushunish an'anasi Teodyul Ribo ishlarida yorqin ko'rinadi. Intellektni ma'naviyat tarkiblaridan o'chirib tashlashni himoya qilib, Ribo shunga intiladiki, intellekt go'yoki sezgi, idrok va tasavvurlarga kirish evolyutsiyasida to'g'rilanishga egadir.

Ribo shunday deydi: "Intellekt ma'naviyatning asosiy unsuri hisoblanmaydi, lekin u yorug'lik, ammo hayot emas, o'z-o'zidan harakat ham emasdir". Bizningcha, Ribo bu fikrlarni aytish bilan SHopengauer izidan borganligini tasdiqladi, xolos.

Ma'naviyat muammosi – Sobiq Ittifoq psixologiyasi fanining eng muhim muammolaridan biri edi. Bu muammoni yechishda mazkur psixologiya inson shaxsining mohiyatini jamiyat munosabatlari yig'indisi sifatida materialistik tushunishdan kelib chiqadi. Aynan bu shaxsning konkret tarixiy-sinfy mohiyati ma'naviyatning hayotiy mazmunini tashkil qiladi. Uning hayotiy va tarixiy-sinfy mohiyati birligi individual o'ziga xos shakli va ko'rinishi fanning markaziy muammosi hisoblanadi. Unda ma'naviyatning ilmiy nazariyasi psixologiya fanining predmetini materialistik tushunishdan kelib chiqadi.

Ilmiy psixologiyada ma'naviyatni tahlil qilish o'zida uning psixologik tuzilishini va psixologik qonuniyatlarini, tipologiyasi va rivojlanishini bilish maqsadida sistematik o'rganishni mujassamlashtiradi. Ma'naviyatni o'rganish psixologiya fanining sohalaridan biri bo'lmish ma'naviyatologiyaning predmeti hisoblanadi.

Ma'naviyat haqidagi tushuncha, shuningdek, uning salbiy mazmunida shunday holatlarda, salbiy ma'naviyat sifatlari ko'rinishi kuzatilganda ishlatiladi. Masalan, irodasizlik, qaysarlik, qo'pollik tarbiyaviy ta'sir yo'li bilan yo'qotiladi. V.E.Mileryan «Ma'naviyatning dinamik sifatlari va bilish qobiliyatlari rivojlanishida o'zaro aloqalarni tadqiq qilish» nomli maqolasida ma'naviyat sifatlari va shaxsning qobiliyatlari shakllanishini aniqlovchi o'zaro aloqalar va munosabatlar muammosining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyatini ko'rib chiqqan.

Insonga kompleks yondashish asosida har tomonlama va garmonik rivojlanishi muammosi, uning XX asrda muhimligi B.G.Ananev, A.A.Bodalev, V.V.Davidov, A.G.Kovalev, V.N.Myasishchev, V.A.Krutetskiy, N.A.Menchinskaya va boshqalarning ishlarida ta'kidlab o'tiladi. Ma'naviyat va qobiliyat haqidagi ta'limot yaxlitligicha shaxsning individual-psixologik sifatlari shakllanishining qonuniyatlarini kompleks o'rganishda amalga oshiriladi.

SHaxsning ma'naviyati va qobiliyatlarining o'zaro aloqasi muammosini yechishga nazariy yondashishlar ishlab chiqilishi va qo'yilishi birinchi marta B.G.Ananev tomonidan «Ma'naviyat va qobiliyat rivojlanishidagi o'zaro aloqalar haqida» nomli ishida amalga oshirildi. B.G.Ananevning nazariy fikrlari o'z vaqtida V.N.Myasishchev ishlarida keyingi rivojlanishini topdi. Bu tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o'quvchilarining o'zlashtirish qobiliyati bilan chaqqonlik, harakatchanlik, irodaviy o'zini boshqarish va emotsional turg'unlik kabi ma'naviyatologik sifatlarning o'zaro aloqasini nazariy va eksperimental tadqiq etish hisoblanadi.

Ma'naviyatning aniq sifatlari rivojlanishining genezisi insonning qobiliyatlarini shakllanadigan faoliyat tarixida berilgan. V.E.Mileryanning fikricha, aqlning shakllanishi – bu



butunligicha shaxsning shakllanishidir. SHuningdek, u B.G.Ananev izidan borib, ma'naviyatni shaxsning individual o'ziga xos psixik boyligi sifatida, ob'ektiv borlikka munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish usullari sifatida qarab chiqqan holda, uning tuzilishida ma'naviyatning dinamik tomonini ko'rsatuvchi va shaxs munosabatlari ko'rinishi shaklini aks ettiruvchi emotsional-dinamik va irodaviy sifatlar guruhiga ajratdi.

V.E.Mileryan bularning qatoriga vazminlik, jo'shqinlik, harakatchanlik, emotsional turg'unlik, o'zini o'zi boshqarish kabi ma'naviyat sifatlarini kiritdi.

Uning fikricha, ma'naviyat sifatleri o'zida oliy nerv faoliyatining o'ziga xos individual-tipologik sifatleri va xulq-atvor dinamikasining individual o'ziga xosligini aniqlovchi psixik faoliyatda orttirilgan funktsional sifatlarining birikmasini aks ettiradi.

SHunday qilib, o'rganilayotgan ma'naviyatologik sifatlar: vazminlik, jo'shqinlik, harakatchanlik, emotsional turg'unlik, irodaviy o'zini o'zi boshqarishi kabi oliy nerv faoliyatining gipotetik sifatlariga asoslanib, ma'lum darajada tarbiya, ta'lim, individual rivojlanish, ijtimoiy muhit sharoitining fenotipik natijasi hisoblanadi.

Ma'naviyatning jo'shqinligi reaksiya kuchida, maqsadga yo'nalgan faollikda qo'yilgan maqsadga erishish uchun insonning o'zini jonlantirish qobiliyatida, yuksak ishchanlik qobiliyatida, ko'rinadi. Ma'naviyatning vazminligi deganda shaxs faolligi bilan uning xulq-atvori dinamikasi turg'unligini ma'naviyatlovchi o'zini tuta bilish o'rtasidagi aniq mos kelish tushuniladi.

K.D.Ushinskiyning ko'rsatishicha, ma'naviyat tushunchasiga ega bo'lish kuzatish uslubi orqali amalga oshadi. Kuzatish manbaning mazmunini emas, balki insonning hayot va faoliyat shakllarini kuzatish demakdir. Lekin Ushinskiyning tarbiyachining tarbiyalanuvchiga ta'siri haqidagi qarashlari orqali ma'naviyatdagi sun'iylikni ma'naviyat mazmunidan ajratmaganlikdir.

Lesgaft o'zining ma'naviyat haqidagi ta'limotini ochib berishda quyidagi irodaviy sifatlariga e'tibor qilishlikni uqtirib o'tadi: o'zini idora qila bilish, o'zining faoliyatini anglash, to'siqlardan o'ta olish imkoniyati kabilarni nazarda tutadi. Bulardan tashqari, ma'naviyat sifatlariga u insonlardagi qat'iylik, ya'ni ongli tarzda mavjud haqiqatga irodaviy erishishni kiritadi. Insonning o'zini o'zi shakllantirish sharoitida shunday axloqiy sifatleri rivojlantirish kerakligini ma'qul, deb topadi, bunda uning shaxsiy irodaviy faoliyati tasdiqlangan «haqiqat haqidagi» tushunchaga qaratilgan, bu tushuncha insonning o'ziga va boshqalarga ham taalluqlidir.

Ba'zi bir psixologlar tomonidan maqsadga yo'nalganlik, boshqacha atamalar (iboralar) bilan ham ma'naviyatning asosiy qismi ekanligi ifodalanadi. Jumladan, K.N.Kornilovning «ma'naviyat» tushunchasi – bu insonning shaxsiy psixologik sifati bo'lib, uning asosiy hayotiy qurilma (yo'l-yo'riq)laridan: dunyoqarashi, qiziqishi, axloqiy ishonchi, taqlid namunasi kabilardan iboratdir, aynan shu jihatlari inson faoliyatining o'ziga xosligini ta'minlaydi.

B.M.Teplovning tasdiqlashicha, ma'naviyatning ifodalanishi «maqsad ifodalanishi» kabidir. Bu jarayonda inson o'z oldiga maqsad qo'yish bilan uni amalga oshirish vosita va uslublarini, yo'l-yo'riqlarini ham aniqlaydi. Keyin ularni ayrim-ayrim holda tushuntirib: «inson ma'naviyati birinchi navbatda uni dunyoga, boshqa kishilarga, o'z ishiga va aynan o'ziga nisbatan munosabati orqali aniqlanadi. Bunday munosabatlar insonning dunyoqarashlari, e'tiqodi, ongli ifodasini topa olishi hamda uning tuyg'ulari orqali boshdan



kechiriladi». Demak, bu yerda keltirib o'tilgan barcha insonning tashqi olamga, o'ziga nisbatan ongli ravishda ifodalangan munosabatlari yo'naltirilgan tushunchaga ega bo'lish kabilar uni faoliyatga undovchi turkumiga kiradi.

B.G.Ananev esa ma'naviyat tushunchasiga insonning shaxsiy sifatlarini kiritmasdan, faqat asosiy yo'nalishlarini, aynan shu yo'nalish shaxs hayotiy faoliyatida o'ziga xosligini ko'rsatadi.

P.A.Shevaryov ma'naviyat deganda insonning shunday psixologik sifatlarini tushunadiki, «ularda insonning dunyoqarashi va xatti-harakatlarida bog'liqlik bo'lsin», - deb ko'rsatadi.

T.G.Egorov boshqa mualliflardan farqli o'laroq ma'naviyat yo'nalganligiga birinchi o'rinda insonning boshqalarga, o'ziga munosabati qatoriga uning mehnatga munosabatini ham kiritadi. P.A.Rudik tomonidan ma'naviyat tushunchasiga o'zining munosabatini ko'rsatib, insonning hayotiy jarayonga turlicha qarashlari qatorida uning ijtimoiy taqozolangan ma'naviyat sifatlarini xuddi «yo'nalish» tushunchasi kabi ochib beradi. Lekin «yo'nalish» atamasini (iborasini) qo'llamaydi.

A.G.Kovalev ma'naviyatni to'g'ridan-to'g'ri insonning psixologik sifatleri yig'indisi deb tushunadi, u shu shaxsning o'zi uchun maxsus sifatga ega bo'lgan yo'nalishda ifodalanadi, ya'ni «o'zini tuta bilish jihati ham qandaydir ma'noda hayotiy aniqlikka kiritiladi», deb ko'rsatadi.

V.S.Filatov xuddi shunday ma'naviyat haqida gapirib, uni inson faoliyatida va xatti-harakatlarida ifodalanishi va shu bilan birga hayotiy yo'nalish bilan aniqlanadi hamda shaxs xatti-harakatining barcha yo'nalishi hisoblanadi, deydi.

K.D.Ushinskiy ma'naviyatning tashkillashuv masalasini iroda jarayoniga kiritgan. «Turli kishilarda aynan ma'naviyatda iroda faoliyati asoslanadi», - degan edi u.

Lesgaftning fikricha, ma'naviyat deb ongli ravishda tasdiqlangan haqiqatda asoslangan inson irodasini aytish mumkin ekan.

Jumladan, B.M.Teplov shunday yozadi: «Ma'naviyatda yuqori ahamiyatga ega bo'lgan hol – bu irodaning sifatidir», bu jarayon psixikaning tomonlari sifatida inson xatti-harakatlarida va faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

B.G.Ananev ma'naviyatning iroda bilan birligi haqida gapirib, shunday deydi: «Ma'naviyat birdamligini tashkil qilishda asosiy o'rinni iroda egallaydi. Irodaviy sifatlar insonning umumiy rivojlanishida tiklanib boradi va shaxs ma'naviyatining irodaviy sifatlarini tarbiyalash zarurligini ko'rsatadi», - deydi.

I.S.Straxov esa ma'naviyatni irodaviy sifatlar orqali aniqlash nazariyasiga o'z munosabatini shunday tasvirlaydi: «Bunday izohlashning ilmiy zarurligini baholash orqali shuni ta'kidlash zarurki, ya'ni irodaning turgan o'rni ma'naviyatning zaruriy qismidir», - deb ko'rsatadi. I.S.Straxovning keyingi ko'rsatmalari ham juda zarurdir. «Bu yo'nalishda ma'naviyatning ayrim tomonlarini aniqlashlaridan, shularning asosiy sifatlarini ko'rsatish kerak, ya'ni qisqa aniqlashga qarama-qarshi holda unda irodaning ba'zi bir sifatlarini faqat har tomonlama aniqlash qabul qilinganligini o'rnatish zarur». Ma'naviyatning ma'lum bir qismi sifatida irodaning o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi haqida T.G.Egorov, P.A.Rudik, A.G.Kovalev kabilar ham o'z munosabatlarini ko'rsatganlar.

Insonning shaxsiy yo'nalishi sifatida ma'naviyat va irodaning umumiy tizimi ma'lum ahamiyatga ega. Masalan, ularning umumiyliги yoki qismlarga ajratilganligi yoki qarama-



qarshiligi. Muayyan darajadagi barqarorligi yoki izchil ravishda o'sib borishi ma'naviyatning yuzaki rasmiy tomoni mazmuni emas, balki xayoliy siymosi, inson xatti-harakatlari uni xuddi shunday o'rganishga ham qaratilishi aynan ma'naviyatning keng ma'noda tadqiq qilinishi, bu hollarning ma'naviyat mazmuni bilan bog'liq ekanligini mujassamlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatning intellektual sifatlari mavjud bo'lib, ma'naviyat bilan intellekt o'rtasidagi murakkab munosabatlar muammosi qadim zamonlardan to bugungi kungacha olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Intellekt – shaxs sifati bo'lib, ob'ektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o'ziga xos aloqalari va qonuniyatlari bilan ongimizda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyatdir.

Intellekt barcha aqliy jarayonlarda, birinchi navbatda, tafakkur va ijodiy xayolda ko'rinadi. U ko'proq yorqinroq yangi muammoni mustaqil yechishda kuzatiladi. Intellektning har xil odamlarda turli darajada rivojlanganligi tufayli bir nechta sifatlari mavjuddir.

- Aqlning tushunarligi – fikrlar oddiyligi va ishonchliligi, unda qandaydir o'ylangan fikr yo'qligi. Bu nafaqat intellektual, balki qandaydir ma'noda axloqiy sifatdir. Chunki aqlning tushunarligi odatda nafaqat harakat uchun javobgarlik, balki fikrlar uchun ham javobgarlikni his qilishdir.

- Aqlning mantiqiyliigi – tafakkurdagi qat'iy davomiylik va sistemalilikdir.

- Aqlning chuqurligi yoki o'ylovchanlik – predmetlarda va hodisalarda o'ziga xoslikni bilish qobiliyati.

- Aqlning kengligi – masalaning barcha tomonlarini hisobga olgan holda fikr yuritish qobiliyati.

- Aqlning yumshoqligi va egiluvchanligi – shablonlik, stereotiplikning yo'qligi, fikrlashni o'zgartirish qobiliyati.

- Mustaqillik va originallik. Bu oddiy aql yumshoqligi bo'lmasdan, balki yangilik aqliy faoliyatning ijodiy sifati.

- Aqlning tanqidiyligi – tekshirilmagan, shunchaki olingan hukmlar yo'qligi, chuqur o'rganilgan, tahlil qilingan, inkorlarga jiddiy munosabatning mavjudligidir. Inson aqlining bu barcha individual sifatlari mehnat jarayonida paydo bo'ladi, u shakllanadi va rivojlanadi.

### References:

1. Гамезо М.В., И.А. Домашенко. "Атлас по психологии".- Москва : "Просвещение" 2004. - 276 с.
2. Ivanov P.I., Zufarova M.YE. "Umumiy psixologiya" Toshkent: O'zbekistan faylasuflari milliy jamiyati, 2008. -480 b.
3. Рубинштейн С. Л. "Основы общей психологии".-Спб.: " Питер" , 1999. - 578 с.
4. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: "Mumtoz zo'z", 2010.- 330 b
5. G'oziev E.G'. Psixologiya.(o'quv qo'llanma) .Toshkent : O'qituvchi,1994. - 223 b.
6. G'oziev E.G'. Psixologiya . Darslik. - Toshkent : O'qituvchi, 2003. - 335 b.
7. G'oziev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent : O'qituvchi,1990.-184 b